

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISHGA ICHKI QIZIQISHNING SHAKLLANISHI: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLAR, KOGNITIV-EMOTSIONAL OMILLAR VA NAZARIY MODELLAR TAHLILI.**

**Abdukarimova Xolida Shavkat qizi**

*Nordic xalqaro universiteti talabasi*

**Suyarova Nazira**

*Angren shahar 37-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:** *Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida, xususan 1-4 sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish masalasi psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.. Savod o'rgatish va husnixat darslarining ahamiyati, o'quvchilarda motivatsiyani oshirish mexanizmlari, shuningdek qiziqishning kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillari ilmiy nazariyalar asosida ko'rib chiqidim.. Maslow, Jean Piaget, Jerome Bruner, Daniel Goleman, Aleksey Leontiev, Albert Bandura, Carl Rogers va Lev Vygotsky kabi yetakchi olimlarning nazariy modellari va ularning ta'lim jarayoniga tatbiqi muhokama qildim.. Maqola o'qituvchilarga individual yondashuv, faol ta'lim usullari va ijobiy emotsional muhit orqali o'quvchi motivatsiyasini oshirishning amaliy yo'llarini bosqichma bosqich yoritib chiqdim.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, o'qishga qiziqish, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, emotsional intellekt, individual yondashuv, faoliyat nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi, kashfiyot o'rganish.*

Boshlang'ich ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi. Aynan bu davrda o'qishga, yozishga va maktab muhitiga o'qituvchiga nisbatan dastlabki munosabati shakllanadi.. Savod o'rgatish va husnixat darslari bu jarayonning dastlabki asosiy tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishning asosiy bosqichining ilk davrlaridir .7 yoshli bola uchun maktab yangi olam . Bola o'yin davridan o'quv faoliyatiga o'tadi. Shu sababli o'qituvchi bu o'tish davrini psixologik jihatdan to'g'ri boshqarishi kerak. Agar savod va husnixat darslari qiziqarli va tushunarli tarzda olib borilsa, o'quvchi bilim olishni nafaqat majburiyat emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi.

Savod o'rgatish jarayonining psixologik-pedagogik asoslari. Savod o'rgatish jarayoni murakkab kognitiv faoliyat bo'lib, unda eshitish, ko'rish, tafakkur va nutq jarayonlari o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Bola avval tovushni eshitadi, uni harf bilan bog'laydi, bo'g'in hosil qiladi, so'ng so'z va gapni o'qiydi. Bu jarayon mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:Diqqatning barqaror emasligi, harakatga ehtiyojning yuqoriligi, juda tez charchab qolish, maqtov va rag'bat istaydi va ehtiyoj sezadi.Shu sababli savod darslarida uzoq davom etishdan va bir xil mashg'ulotlardan qochish zarur. Har 7–10 daqiqada faoliyat turini o'zgartirish, o'yin elementlarini kiritish, vizual vositalardan foydalanish darsni yanada qiziqroq qiladi o'quvchida darsga bolgan qiziqish ortadi.

Ta'lim jarayonida o'qishga qiziqishni shakllantirish pedagogik faoliyatning asosiy vazifalaridan biridir. Zero 1-sinf o'quvchisida yuzaga kelgan dastlabki o'quv motivatsiyasi keyingi ta'lim bosqichlarining samaradorligini belgilaydi. O'qishga qiziqish bu shunchaki vaqtinchalik emotsional holat emas, balki shaxsning bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji, intilishi va ijobiy munosabatining barqaror shaklidir. Pedagogik nazardan qiziqishning shakllanishi murakkab ijtimoiy-psixologik va didaktik omillar ta'sirida yuz beradi. Shu bois bu jarayonni mexanizmlar tizimi sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqligini pedagogika va psixologiya fanlarida shakllangan turli nazariy qarashlarning umumlashtirilganidan ko'rish mumkin.

. Motivatsiya — qiziqish poydevori. Pedagogik adabiyotda “motivatsiya” tushunchasi o'qishga qiziqishning markaziy elementi sifatida qaraladi. Motivatsiya — bu shaxsning ma'lum faoliyatga yo'naltirilgan ichki yoki tashqi sabablar yig'indisidir. Motivatsiya 2turga bo'linadi; Ichki motivatsiya — o'quv jarayonini o'zi uchun qiziqarli deb bilish, yangi bilimni o'rganishni ichki ehtiyoj sifatida his qilishdir. Tashqi motivatsiya esa — baho, rag'bat yoki tashqi mukofot ta'sirida yuzaga keladi. Maslow ehtiyojlar ierarxiyasiga <sup>37</sup>ko'ra, insonlar eng avval asosiy ehtiyojlari qondirilgach, bilishga va o'zini rivojlantirishga intiladi. Savod o'rgatish jarayonida bu mexanizm 1-sinf o'quvchisida “bilishni foydali va mazmunli deb bilish”ni shakllantirgan.

Nazariy asoslar:

- Individual ehtiyojlar tandemi → motivatsiya yo'naltiriladi;
- Motivatsiya qiziqishga aylanadi;
- Qiziqish esa faoliyatni mustahkamlaydi.

O'qishga qiziqish darajasi to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayonining samaradorligiga bog'liq.

Chuqur psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan quvchilar: Birinchi o'rinda bilimni mustahkam o'zlashtiradi hamda mustaqil fikrlay oladi shu bilan birga o'qish jarayonida faol ishtirok etishadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki o'qishga qiziqish — nafaqat motivatsion holat, balki ta'lim jarayonining samaradorlik omilidir. Kognitiv mexanizmning amaliy ijrosi shundan iboratdir:

- Dars topshiriqlarini o'ylab topishga yo'naltirish;
- Savollar orqali fikrlash jarayonini faollashtirish;
- Ma'lumotni konstruktiv tarzda qayta ishlash.

Bu mexanizmdan kelib chiqib shuni bilish mumkin o'qish — passiv qabul qilish emas, balki faol bilish jarayonidir. O'quvchi o'zi javob topganida, uning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishi tubdan ortadi. Kognitiv mexanizm o'quvchilarning tafakkuri, idroki va diqqatini faollashtirish orqali qiziqishni mustahkamlasa Jean Piagetning rivojlanish nazariyasi<sup>38</sup>ga ko'ra, o'quvchilarning fikrlash jarayoni yoshga mos bosqichlarda o'tadi, shuning uchun darslar shunga mos tashkil etilishi zarur. Brunerning kashfiyot o'rganish modeli<sup>39</sup> esa shuni ta'kidlaydiki, o'quvchi bilimni “topish” jarayonida faol bo'lsa, u bilimga ko'proq qiziqadi. Bruner shuni ta'kidlaydiki: o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilgandan ko'ra, uni o'zi kashf etsa — bu bilim mustahkamroq o'rnashadi va o'quvchida ichki motivatsiya paydo bo'ladi. “O'rganish — bu jarayon, natija emas.”

<sup>37</sup> Maslow ehtiyojlar ierarxiyasi

<sup>38</sup> Jean Piagetning rivojlanish nazariyasi

<sup>39</sup> Brunerning kashfiyot o'rganish modeli

### Modelning asosiy tamoyillari

| Tamoyil              | Mazmun                                                  |
|----------------------|---------------------------------------------------------|
| Faollik              | O'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi |
| Intiuktiv fikrlash   | Taxmin va sinov-xato orqali xulosaga kelish             |
| Ichki motivatsiya    | Tashqi rag'bat emas, bilish qiziqishi harakatlantiradi  |
| Spiral o'quv dasturi | Bilim bosqichma-bosqich, takrorlanib chuqurlashadi      |

Matematik qoidani o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy usul;

An'anaviy usul: O'qituvchi formulani tushuntiradi → o'quvchi yodlaydi.

Kashfiyot usuli: O'quvchi misollar orqali o'zi qonuniyatni topadi → formula mazmunli bo'ladi.

Afzalliklari shundan iboratki ;Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, bilim uzoq muddatli xotirada saqlanadi, mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'quv jarayonida emotsional omillar muhim rol o'ynaydi. Daniel Goleman<sup>40</sup> ta'kidlaganidek, emotsional intellekt o'quv motivatsiyasini belgilaydi. O'quvchilarda stress, qo'rquv yoki tushkunlik holatlari motivatsiyani pasaytiradi, ijobiy hislar esa uni mustahkamlaydi. Goleman

amigdala hijacking tushunchasini kiritadi — ya'ni kuchli salbiy his-tuyg'ular miyaning ratsional qismini "o'chirib qo'yadi":

Stress / Qo'rquv / Tushkunlik



Amigdala faollashadi



Prefrontal korteks (mantiq, diqqat) susayadi



O'rganish qobiliyati pasayadi

Lekin aksinchasi

Xavfsizlik / Qiziqish / Ijobiy muhit



Dopamin va serotonin ishlab chiqiladi



Diqqat va xotira kuchayadi



Motivatsiya va o'rganish samaradorligi ortadi

Ta'limdagi amaliy ahamiyatini ikkita omillar orqali yoritib ketaman. Salbiy omillar — motivatsiyani pasaytiradi. Imtihondan qo'rquv paydo bo'ladi. O'qituvchi yoki tengdoshlar

<sup>40</sup> Daniel Goleman

tomonidan kamsitilish kuzatiladi. Muvaffaqiyatsizlikdan uyalish hisi paydo bo'ladi. Ortiqcha bosim vujudga keladi. Ijobiy omillar esa motivatsiyani mustahkamlaydi. Xavfsiz va qo'llabquvvatlovchi sinf muhiti olib keladi. Muvaffaqiyatni nishonlaydi. O'quvchining histuyg'ularini tan oladi o'ziga ishonch paydo bo'ladi. O'qituvchining empatik munosabati hosil bo'ladi.

Goleman va Bruner nazariyasida bog'liqlik bor ularni jadval usulida ko'rib chiqaman.

|                    | Bruner                          | Goleman                                       |
|--------------------|---------------------------------|-----------------------------------------------|
| Asosiy g'oya       | Faol kashfiyot                  | Emotsional holat                              |
| Motivatsiya manbai | Bilish qiziqishi                | His-tuyg'ular boshqaruvi                      |
| O'qituvchi ro'li   | Yo'naltiruvchi                  | Emotsional qo'llab quvvatlovchi               |
| Umumiy xulosa      | O'quvchi faol bo'lsa, o'rganadi | O'quvchi his-tuyg'ularni boshqarsa, o'rganadi |

Aleksey Leontiev faoliyat nazariyasi<sup>41</sup> ni ilgari surib, shaxsning rivojlanish jarayoni faoliyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi. Ta'lim jarayonida shu tamoyil qo'llanganda:

O'quvchi passiv tinglovchi bo'lmay, faol subyekt bo'ladi. Bilimlarni amaliy qo'lay oladi. Natijaga erishishga bo'lgan harakatni yanada kuchaytiradi.

Interfaol pedagogika mexanizmlari: Guruh ishlari, juftlikda muloqotga asoslangan topshiriqlar, o'yin elementlar, tashqi ko'rgazmali materiallarni o'z ichiga oladi. Bu metodlar o'quvchining o'z-o'zini ifodalashiga sharoit yaratadi va uni dars jarayoniga qiziqish uyg'otadi.

Albert Bandura<sup>42</sup> ta'kidlaganki, o'quvchilar ijtimoiy muhit orqali o'zaro o'rganadilar. Birbirini kuzatadi, taqlid qiladi va ijobiy tajribani o'zlashtiradi. Ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit shunday ta'sir ko'rsatadi. Guruhdagi hamkorlik orqali o'rganish iste'dodini oshiradi, jamoaviy muvaffaqiyat hissi qiziqishni mustahkamlaydi hamda raqobat — sog'lom motivatsiyani kuchaytiradi.

Individual yondashuv mexanizmi: Har bir o'quvchining rivojlanish tezligi, qiziqish darajasi, o'rganish uslubi turlichadir. Carl Rogers<sup>43</sup> shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ilgari surib:

- O'quvchi qobiliyatiga mos topshiriq tanlash;
- Individual yondashuvni shakllantirish;
- Qo'shimcha yordamni ta'minlash zarurligini takidlab o'tgan.

Lev Vygotsky "yaqin rivojlanish zonasi" modeli<sup>44</sup> da o'quvchining mustaqil erishadigan darajasi va yordam bilan erishadigan darajasi o'rtasidagi farqi o'rgangan. Bu sxema individual yondashuv mexanizmi shuni ko'rsatadi

<sup>41</sup> Aleksey Leontiev faoliyat nazariyasi

<sup>42</sup> Albert Bandura

<sup>43</sup> Carl Rogers

- O'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;
- Moslashtirilgan pedagogik topshiriqlar berish;
- Qo'shimcha pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

O'qishga qiziqishni shakllantirish — bu nafaqat metodik usullar majmuasi, balki chuqur pedagogik, psixologik va ijtimoiy jarayondir. U pedagog, o'quvchi va muhit o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarda yuzaga keladi. O'qituvchi mexanizmlarni bilgan holda ✓ darsni pedagogik maqsad bilan rejalashtirish;

✓ individual o'quvchi ehtiyojiga moslashtirish;

✓ faollik va motivatsiyani uyg'unlashtirish; ✓ samarali ta'lim natijalari olish olib borishga yordam beradi.

Maqolani yozish adabiyotlardan qidirib, o'rganib chiqish davomida men shuni yorita oldimki; boshlang'ich ta'lim — bu faqat harflarni o'rgatish emas, balki bolaning butun hayoti davomida bilimga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi poydevordir. Maqolada ko'rib chiqilgan psixologik-pedagogik mexanizmlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchisida o'qishga ichki qiziqishning shakllanishi murakkab, ko'p qatlamli va maqsadli boshqariladigan jarayondir. Tahlil natijalariga ko'ra, o'qishga qiziqish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi u pedagogning ongli va izchil mehnati, o'quvchiga nisbatan empatik munosabati, darsni mazmunli va faol tashkil etishi orqali yuzaga keladi. Maslow nazariyasi asosida o'quvchining asosiy ehtiyojlari xavfsizlik, tan olinish va muvaffaqiyat hissi qondirilgandagina bilishga intilish paydo bo'ladi. Jean Piaget va Jerome Brunerning rivojlanish va kashfiyot o'rganish nazariyalari ko'rsatadiki, bola bilimni tayyor holda qabul qilganda emas, balki uni o'zi "topib", kashf etib o'rganganida bu bilim uning ongida mustahkam o'rinishadi va ichki motivatsiya paydo bo'ladi. Shuning uchun dars bu tinglash maydoni emas, balki kashfiyot maydoni bo'lishi zarur. Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasi ta'lim jarayonidagi hissiyot va muhitning hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Sinfdagi xavfsiz, iliq va qo'llab-quvvatlovchi muhit o'quvchi miyasida dopamin va serotonin ishlab chiqarilishini ta'minlab, diqqat, xotira va o'rganish samaradorligini oshiradi. Aksincha, qo'rquv, kamsitilish va ortiqcha bosim o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi. Leontiev, Bandura va Carl Rogersning faoliyat, ijtimoiy o'rganish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyalari esa birgalikda: har bir o'quvchi o'ziga xos shaxs. Uning o'rganish sur'ati, qiziqish darajasi va ehtiyojlari turlicha. Shuning uchun o'qituvchi uchun eng muhim ko'nikma bu individual yondashuvni ta'minlash va har bir o'quvchini o'ziga mos darajada qo'llab-quvvatlashdir. Lev Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" modeli esa pedagogik amaliyotda eng nozik va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi: o'quvchiga na juda oson, na juda qiyin balki sal yuqoriroq, ammo erishish mumkin bo'lgan vazifani berish orqali uning o'sishiga olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchisida o'qishga ichki qiziqishni shakllantirish bu bir kunlik ish emas. Bu sabr-toqat, mehr va ilm talab qiladigan uzoq muddatli pedagogik jarayondir. Biroq aynan shu jarayon to'g'ri va ongli tashkil etilganda, 1-

<sup>44</sup> Lev Vygotsky "yaqin rivojlanish zonasi" modeli

sinfda maktabga qadam qo'ygan bola bilimga ishtiyoqli, mustaqil fikrlovchi va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir shaxsga aylanadi. Buning uchun o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ilhom beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi murabbiy bo'lishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370–396.
2. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
3. Bruner, J. S. (1961). The act of discovery. *Harvard Educational Review*, 31(1), 21–32.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
5. Leontiev, A. N. (1978). *Activity, Consciousness, and Personality*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
6. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
7. Rogers, C. R. (1969). *Freedom to Learn*. Columbus: Charles E. Merrill Publishing.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Cambridge: Harvard University Press.
9. O'rinov, M. va boshq. (2020). *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston.
10. Xoliqov, A. (2017). *Pedagogik psixologiya*. Toshkent: Sano-standart.